O'zbekiston va Angliyada pedagogik ta'lim tizimining tarixiy asoslari.....	686
<i>Miramatova Laylo Ravshanjon qizi</i>	
Innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	690
<i>Nilufar Xalikova Mirkadirovna</i>	
Badmintonchilarda maxsus chaqqonlik tayyorgarligining o'yin faoliyatiga ta'siri	694
<i>Samadova Uktabar Hasanovna</i>	
<i>Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishda sinergetik</i>	
yondashuvning o'рни va ahamiyati	698
<i>Yusupova Dilnoza Fayzullayevna</i>	
Pedagogical Essence of Improving Students' Collaborative Skills Through Multi-Vector Approaches	702
<i>Turemuratova Aziza Begibaevna, Otelbayeva Muhayyo Alisher qizi</i>	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarining maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv, estetik va ijodiy rivojlanishiga ta'siri	708
<i>Shaymuradov Taxir Zamanovich</i>	
Oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni baholash mezonlari: falsafa fanining o'quv jarayoniga integratsiyasi	713
<i>Abdullayev Akmal Nasriddinovich</i>	
Klasterli ta'lim muhitida bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodlari.....	717
<i>Abdurahmonov Maqsad Bekjonovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanishning yetakchi omillari.....	720
<i>Abduvosiyeva Mahmuda Xamidullo qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirish: zamonaviy yechimlar va muammolar	724
<i>Abduxalimova Yulduz Normurod qizi</i>	
Maktablarda sun'iy intellekt asosida xorijiy tillarni o'qitish afzalliklari	728
<i>Altimisheva Iroda Mavlonovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	731
<i>Ashurov Yusuf Alisher o'g'li</i>	
Bolalikni qayta anglash: mariya montessori pedagogik qarashlarining ilmiy asoslari	735
<i>Ismatullayeva Madinabonu Akmaljon qizi</i>	
14-15 yoshli o'quvchilarning jismoniy tarbiya vositalari orqali jismoniy tayyorgarligi samaradorligini oshirish metodi	740
<i>Karimboyev Og'abek Qadamboyevich</i>	

O'zbekiston xalqlarining amaliy san'ati va ma'naviy merosini o'rganish: tarixiy va pedagogik jihatlar	744
Kayumov Erkin Kazakbayevich	
Fizika ta'limida kognitiv texnologiyalar asosida talabalarning mantiqiy va analitik tafakkurini rivojlantirish yo'llari	748
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonlarida pedagogik-psixologik bilimlarning ahamiyati	751
Muratova Shaxnoza Ibatovna	
Yoshlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashda pedagogik resurslar va hamkorlik infratuzilmasining ahamiyati	754
Matnazarov O'ktam Latipovich	
Maxsus pedagogika o'qituvchilarining pedagogik va psixologik tayyorgarlik darajasi	757
Oxunov Ilxomjon Abdunabiyeich	
Funksional bog'liqlikni tushunishda vizual-eksperimental metodning samaradorligi	760
Qobilova Nargiza Anvarovna, Shamuratov Zafar Ergashevich	
The Psychological Importance of Emotional Intelligence and Stress Resilience in Increasing Professional Efficiency of Primary School Pedagogues	766
Tajiboyeva Odinakhon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayoni sifatini monitoring qilish vositasi sifatida	769
Tashbayev Naim Sadikovich	
Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	773
Temirova Oydina Muhiddinova	
Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari	776
Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li	
Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарира Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	
Oliy ta'lim muassasalarida muloqot madaniyatini shakllantirish orqali verbal zo'ravonlikni bartaraf etish texnologiyalari	817
Oqmirzayeva Baxtigul Bahodir qizi	
Tashvishli buzilishlarni korrektsiya qilishda kognitiv-bixevioristik terapiya usullari	821
Sattarova Shaxnoza Qo'chqarovna, Xamroyeva Zarina Shaxriyevovna	



Rahbar va pedagogik muhit: nazariy va amaliy asoslar	824
<i>Xodjimatrova Nazira Toshmatovna, Gaziyeva Nigora Shamsiddinova</i>	
O'smirlik – deviant xulq shakllanishi uchun senzitiv davr sifatida	827
<i>Sattarova Shahnoza Qo'chqarovna, Erkinjonova Raximaxon Baxtiyor qizi</i>	
Цифровые образовательные технологии как средство формирования коммуникативной компетенции при обучении русскому языку как иностранному	830
<i>Ескараева Г. Б.</i>	
Kredit-modul tizimi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning amaliy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	833
<i>Muxiddinova Nilufar Baxodirovna</i>	
Talabalar mediakompetentligini baholash usullari va mezonlari	839
<i>Alimov Zokir Chori o'g'li</i>	
STEAM ta'lim texnologiyasi orqali tabiiy fanlarni o'qitish va o'quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish	844
<i>Ergasheva Malohat Tursunovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlash va baholash mezonlari	847
<i>Hamzayeva Nigina Azamjonovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o'qitishda fanlararo bog'liqlik	852
<i>Musayeva Dilfuza Abdurahmonova</i>	
Ta'limda muloqot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan metodlar tizimini ilmiy tahlil qilish	857
<i>Kobulova Maktuba Urmonjonovna</i>	
Shaxs psixologik portreti va unga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	862
<i>Ataqulov Bekzod Abdurashitovich</i>	
Zamonaviy didaktik paradigmasda talabalar ta'lim natijalarini tashxislash	866
<i>Tursunova Feruza Otaqulovna</i>	
Ingliz tilini bilishning sport talabalari uchun ahamiyati	869
<i>Azimova Umirxon Odilovna</i>	
Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari	873
<i>Baxtiyor Suvankulov</i>	
Oliy ta'limda talabalarning mustaqil va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishning metodik asoslari	877
<i>Abduraxmonova Dinara Yusupovna</i>	
Tarbiya jarayonida pedagogik boshqaruv uslublari: nazariy asoslar va amaliy mexanizmlar	881
<i>Farsaxonova Dilafuz Rizaxonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim davlat talablari va o'quv dasturlarida nutq hamda mustaqil fikrlash masalalari	886
<i>Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna, Qobilova Dildora</i>	
Zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali talabalarning kasbiy loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari	890
<i>Xamidova Feruza Turdiyevna</i>	
Raqamli davr bolasini tarbiyalashda psixologik muvozanatni saqlash orqali sog'lom shaxsni shakllantirish	896
<i>Hakimova Ziyoda Ibrohim qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik intellektini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	900
<i>Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda qo'llaniladigan nazariy modellar	903
<i>Abdiraimova Xusnobod Samat qizi</i>	
Talabalar mustaqil ta'limini individuallashtirish metodlari	910
<i>Arzikulova Surayyo Fayzullayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishning amaliy asoslari	914
<i>Xoliqulova Kumush Ilxom qizi</i>	
Psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida mahdudlik holatlarini bartaraf etishning takomillashtirilgan metodikasi (maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari misolida)	919
<i>Mamatqulova Dinora Yunus qizi</i>	

Ilg'or pedagogik texnologiyalar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish	923
Uzoqova Husnora	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish jamiyatning asosiy talabi sifatida	927
Toshimova Gulzoda Jamoliddinovna	
Sun'iy intellekt vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini shakllantirish mexanizmlari	930
Jumayeva Feruza Sayidovna	
O'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash (2-sinf misolida).....	936
Abdiyeva Shakila Ishkuvatovna	
Turistik faoliyatda ijtimoiy muloqot kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	941
Abdullayeva Sevara Yuldashevna	
Oilaning katta avlodi va maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtaqidagi psixologik munosabatlarning nazariy asoslari	944
Ashirova Sojida Baxromovna	
Yosh pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda tajriba almashishning ilmiy-metodik asoslari va usullari	948
Dildora Rustam qizi Fozilova	
Maktabga tayyorlov bosqichida o'quvchilar grafomotorikasini individual yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	951
Jumayev Sanjar Soatmumin o'g'li	
Uzluksiz ta'limda inklyuziv yondashuvning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik va ijtimoiy omillar.....	955
Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovna	
Tolerantlik tushunchasining mohiyati va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati.....	958
Kurbanova Shoirra Abduraximovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni mashg'ulotlar jarayonida TRIZ texnologiyasi bilan tanishtirishning ahamiyati.....	961
Meliboyev Anvar Rashidovich	
The Conceptual Framework and Pedagogical Affordances of Vtss: A New Paradigm for Specialised Instruction.....	964
Nilufar Sabirova	
O'zbek oilalarida axloqiy tarbiya munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	967
Qurbonova Go'zal Saydaxmatovna	
Fizika o'qitishda 4K kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari	973
Saydayev Obid Bahodir o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion faoliyat ko'nikmalarini takomillashtirishning modulli texnologiyalari	979
Saliyeva Perdexan Alimbetovna	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak ijtimoiy soha xodimlarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish	984
Qaxxorov Shahriyor Yodgorovich	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish usullari.....	987
Sattorova Shaxlo Axadovna, Omonova Shoxista Anvar qizi, Raximova Durdona Murot qizi	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt elementlaridan foydalanishning afzalliklari	990
Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik sanalarga bag'ishlab ma'rifiy tadbirlar o'tkazishning afzalliklari.....	993
Tohirova Baxtigul Hasanboy qizi	
Pedagogik ta'limda talabalarning gnoseologik motivatsiyasini rivojlantirish zaruriyati	996
Xudoyqulova Dilrabo Shodmonovna	
Сопоставление русских и узбекских пословиц: сходства, различия и культурный контекст	1000
Касымова Феруза Суннатовна	
Теоретические аспекты развития мотивационной сферы в психологии изучения личности	1003
Маликова Эвелина Тимуровна	



Психологическая устойчивость личности в исследованиях узбекских учёных: теоретический анализ и применение концепции	1007
Саитходжаев Зуфар Хусан угли	
Biologiya ta'limida kognitiv yondashuv asosida o'quvchilarning universal o'quv faoliyatlarini shakllantirish	1011
Daminova Fayoz Abdixakimovna	
Milliy musiqa merosini zamonaviy ta'limda saqlash muammolari va yechimlari.....	1014
Haydarov Qutlug' Hamdamovich	
Sun'iy intellekt: maktabgacha ta'lim tashkilotining taraqqiyotini ta'minlovchi zamonaviy texnologiya sifatida.....	1017
Axmadaliyeva Mohlaroy Toxtapo'latovna	
Shukur Xolmirzayevning ijtimoiy-etnografik folklorizm yaratish mahorati	1021
Mamayusupova S. M.	
Androgogik va interfaol metodlarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarda foydalanish samaradorligi.....	1024
Normamatov Muxiddin Abdumuminovich	
Tinglab tushunishning psixolingvistik xususiyatlari.....	1028
O. V. Kon	
Gi de Mopassanning hikoyachilik mahorati va badiiy uslubi.....	1032
Yuldashev Bahodir Bekmuratovich	
Художественный мир и стилистическая система прозы Патрика Модiano.....	1035
Давронова Зульфия Бобоевна	

MILLIY MUSIQA MEROSINI ZAMONAVIY TA'LIMDA SAQLASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Haydarov Qutlug' Hamdamovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti, musiqiy ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston milliy musiqa merosini zamonaviy ta'lim tizimi sharoitida saqlash va rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida an'anaviy musiqa ta'limining hozirgi holati, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari nazariy jihatdan o'rganilgan. Tadqiqot natijalari milliy musiqa merosini asrab-avaylash va rivojlantirishda an'anaviy hamda zamonaviy ta'lim usullarini uyg'unlashtirish, o'quv dasturlarini takomillashtirish hamda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Maqolada mazkur yo'nalishda kelgusida olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: milliy musiqa merosi, maqom san'ati, an'anaviy cholg'u asboblari, musiqa ta'limi, madaniy meros, ta'lim metodikasi, etnomuzikashunoslik.

Abstract: This article examines the issues of preserving and developing Uzbekistan's national musical heritage within the framework of the modern education system. The study provides a theoretical analysis of the current state of traditional music education, identifies existing challenges, and explores possible ways to address them. The research findings indicate that the integration of traditional and modern teaching methods, improvement of educational curricula, and training of highly qualified specialists play a significant role in preserving and promoting national musical heritage. The article also offers scientific and practical recommendations for future research in this field.

Key words: national musical heritage, maqom art, traditional musical instruments, music education, cultural heritage, teaching methodology, ethnomusicology.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы сохранения и развития национального музыкального наследия Узбекистана в условиях современной системы образования. В ходе исследования проведён теоретический анализ современного состояния традиционного музыкального образования, выявлены существующие проблемы и определены возможные пути их решения. Результаты исследования показывают, что важную роль в сохранении национального музыкального наследия играет интеграция традиционных и современных методов обучения, совершенствование учебных программ, а также подготовка высококвалифицированных специалистов. В статье предложены научно-практические рекомендации для дальнейших исследований в данной области.

Ключевые слова: национальное музыкальное наследие, искусство макома, традиционные музыкальные инструменты, музыкальное образование, культурное наследие, методика обучения, этномузыкология.

KIRISH

Globalashuv davrida milliy madaniy merosni, xususan, musiqa an'analarini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish masalasi butun dunyo mamlakatlarida dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston boy musiqa merosiga ega bo'lib, maqom san'ati, an'anaviy cholg'u asboblari ijrochiligi va xalq qo'shiqlari ming yillik tarixga ega. Biroq zamonaviy texnologiyalar va G'arb madaniyati ta'sirida yosh avlodning milliy musiqaga qiziqishi susayib bormoqda. Mazkur vaziyat milliy musiqa merosini ta'lim tizimi orqali saqlash va rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda ^[1]. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, milliy musiqa merosi nafaqat badiiy-estetik qadriyat, balki xalq o'zligini, tarixiy xotirasini va madaniy identitetini ifodalovchi muhim omil hisoblanadi. YUNESKO tomonidan O'zbek maqom san'atining insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilishi ^[2] bu san'atni jahon miqyosida e'tirof etilganligini ko'rsatadi va uni saqlash bo'yicha mas'uliyatni yanada oshiradi. Shu bois, milliy musiqa ta'limining hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi milliy musiqa merosini zamonaviy ta'lim tizimida saqlash va rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ilmiy asoslangan yechimlarni taklif etishdan iborat.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil va tizimli yondashuv metodlari qo'llanilgan. Ilmiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish asosiy ma'lumot to'plash usuli sifatida foydalanilgan. O'zbek musiqa merosi bo'yicha fundamental tadqiqotlar orasida F.M. Karomovning ishlari alohida o'rin tutadi. Olim o'zbek maqom san'atining nazariy asoslarini chuqur o'rganib, maqomlarning tuzilishi, ijro xususiyatlari va ta'limiy jihatlarini tahlil qilgan ^[3]. Uning tadqiqotlari maqom san'atini o'qitishning ilmiy-metodik bazasini yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, O.Matyoqubov tomonidan o'zbek an'anaviy musiqasining tarixiy rivojlanishi va hududiy xususiyatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ^[4] milliy musiqa ta'limining mintaqaviy jihatlarini tushunishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Rus olimlaridan V.N. Xolopopova musiqa ta'limi nazariyasi va metodikasi bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan. Uning "Musiqa mazmuni" asarida musiqa asarlarini idrok etish va tushunish mexanizmlari chuqur tahlil qilingan ^[5]. Bu yondashuv milliy musiqa asarlarini o'qitishda ham qo'llanilishi mumkin. E.B. Abdullin esa umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi nazariyasi va metodikasi bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan ^[6], uning ishlarida musiqa darslarining tuzilishi, o'qitish usullari va baholash mezonlari batafsil yoritilgan.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida B. Nettl etnomuzikashunoslik sohasida yetakchi mutaxassis sifatida tan olingan. Uning "The Study of Ethnomusicology" asarida an'anaviy musiqani o'rganish va o'qitishning metodologik yondashuvlari taqdim etilgan ^[7]. Nettl ta'kidlashicha, milliy musiqani saqlashda og'zaki an'ana va yozma manbalarni birlashtirish muhim ahamiyatga ega. P. Campbell esa bolalar musiqa ta'limida madaniy xilma-xillik masalalarini o'rganib, turli xalqlar musiqa an'analari o'qitish metodikasini ishlab chiqqan ^[8]. Uning yondashuvi milliy musiqa ta'limida integrativ metodlarni qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatadi.

L. Green norasmiy musiqa o'rganish jarayonlarini tadqiq etgan va an'anaviy musiqa ta'limida ustoz-shogird munosabatlarining rolini ta'kidlagan ^[9]. Bu yondashuv O'zbekistondagi an'anaviy uslubda musiqa o'rgatish tajribasiga to'liq mos keladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy musiqa merosini saqlashda ta'lim tizimining roli hal qiluvchi ahamiyatga ega, biroq bu borada yagona universal yondashuv mavjud emas va har bir mamlakat o'z madaniy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda metodikalarni ishlab chiqishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Adabiyotlar tahlili va nazariy tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda milliy musiqa merosini ta'lim tizimida saqlashga oid bir qator muammolar aniqlandi.

Birinchidan, o'quv dasturlarining nomutanosibligi kuzatilmoqda, ya'ni umumta'lim maktablarida musiqa darslarida milliy musiqa merosiga ajratilgan soatlar yetarli emas va aksariyat hollarda nazariy ma'lumotlar amaliy ijrochilikdan ustun keladi. Karomovning tadqiqotlariga ko'ra ^[3], maqom san'atini o'zlashtirishda nazariya va amaliyotning uyg'unligi muhim ahamiyatga ega, biroq hozirgi o'quv dasturlarida bu muvozanat buzilgan.

Ikkinchidan, malakali kadrlar yetishmasligi jiddiy muammo hisoblanadi. Milliy cholg'u asboblari professional darajada chalish va o'qitish qobiliyatiga ega mutaxassislar soni yildan-yilga kamayib bormoqda. Abdullin ta'kidlaganidek ^[6], musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi o'qitish samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida bu muammo yanada dolzarb, chunki milliy musiqa ijrochiligi maxsus ko'nikmalarni talab qiladi.

Uchinchidan, moddiy-texnik bazaning yetishmasligi ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'pgina ta'lim muassasalarida an'anaviy cholg'u asboblari yetarli emas yoki ularning sifati past. Xolopopova fikricha ^[5], musiqa ta'limida to'g'ridan-to'g'ri cholg'u asbobi bilan ishlash muhim, chunki bu tinglovchining musiqa idrokini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Nettl ham ta'kidlaganidek ^[7], an'anaviy musiqani o'rganishda asl cholg'u asboblari bilan ishlash muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, globallashuv va axborot texnologiyalarining ta'siri yosh avlodning musiqiy didini shakllantirmoqda. Zamonaviy bolalar va yoshlar ko'proq G'arb pop-madaniyati ta'sirida bo'lib, milliy musiqaga qiziqish susaymoqda. Campbell ta'kidlaganidek ^[8], bu muammoni hal etish uchun milliy musiqani zamonaviy formatda taqdim etish, uni yosh avlod uchun qiziqarli qilish zarur. Green esa ^[9] norasmiy o'rganish muhitining, ya'ni oila, mahalla va ijtimoiy tarmoqlarning rolini ta'kidlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aniqlangan muammolarni hal etish uchun quyidagi yechimlar taklif etiladi.

Birinchidan, o'quv dasturlarini takomillashtirish va milliy musiqa komponentini kuchaytirish zarur. Maktab musiqa darslarida maqom san'ati, xalq qo'shiqlari va an'anaviy cholg'u asboblari ko'proq vaqt ajratilishi lozim. YUNESKO tomonidan belgilangan mezonlarga muvofiq ^[2], maqom san'atini o'qitish alohida dastur asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.



Ikkinchidan, milliy musiqa o'qituvchilarini tayyorlash tizimini yaxshilash kerak. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida milliy musiqa yo'nalishidagi mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilishi, malaka oshirish kurslari tashkil etilishi lozim. Matyoqubov tadqiqotlariga tayanib ^[4], har bir mintaqaning o'ziga xos musiqa an'analarini hisobga olgan holda mintaqaviy kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish zarur. Milliy musiqa namunalari raqamlashtirish, multimedia o'quv qo'llanmalari yaratish va onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish milliy musiqani yosh avlodga yetkazishning samarali vositalariga aylanishi mumkin. Murakkab maqomlarni audio-video formatlarda saqlash va tarqatish ularning keng ommaga yetib borishini ta'minlaydi.

Milliy musiqa merosini saqlashda oila va jamiyatning roli ham e'tiborga olinishi lozim. An'anaviy ravishda O'zbekistonda musiqa san'ati avloddan-avlodga oila doirasida, ustoz-shogird tizimi orqali o'tkazilgan. Biroq zamonaviy sharoitda bu an'ana sustlashmoqda, ko'plab oilalarda bolalarni milliy musiqaga o'rgatish amaliyoti yo'qolmoqda. Green ta'kidlaganidek [9], norasmiy ta'lim muhiti, ya'ni oila, mahalla va ijtimoiy guruhlar musiqiy madaniyatni shakllantirishda maktab ta'limidan kam ahamiyatga ega emas. Shu sababli, ta'lim muassasalari bilan oila va jamiyat o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, ota-onalarni milliy musiqa ahamiyati haqida xabardor qilish va mahalliy madaniy tadbirlar orqali bolalarning milliy musiqaga qiziqishini oshirish zarur. Bundan tashqari, mahalliy musiqa festivallari, tanlovlar va konsertlar tashkil etish yosh avlodning milliy musiqaga mehr-muhabbatini shakllantirish va ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston milliy musiqa merosini zamonaviy ta'lim tizimida saqlash va rivojlantirish murakkab, ko'p qirrali vazifa hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, bu sohadagi muammolar nafaqat O'zbekistonga, balki butun dunyodagi ko'plab mamlakatlarga xos bo'lib, ularni hal etishda kompleks yondashuv talab etiladi. Milliy musiqa ta'limining samaradorligini oshirish uchun o'quv dasturlarini takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlash, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish zarur. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, taklif etilgan yechimlar milliy musiqa ta'limini tashkil etishda foydalanilishi mumkin. Kelgusida empirik tadqiqotlar o'tkazish, ya'ni o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida so'rovnomalar tashkil etish, musiqa darslarining samaradorligini baholash va takomillashtirilgan metodikalarni sinab ko'rish maqsadga muvofiq. Milliy musiqa merosi xalqimizning ma'naviy boyligi sifatida avaylab saqlanishi va kelajak avlodlarga munosib tarzda yetkazilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rajabov, I.R. O'zbek musiqasi tarixi / I.R. Rajabov. – Toshkent: O'qituvchi, 2006. – 256 b.
2. ЮНЕСКО. Шашмаком – нематериальное культурное наследие человечества [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://ich.unesco.org/en/RL/shashmaqom-music-00071>
3. Каромов, Ф.М. Узбекская инструментальная музыка: наследие / Ф.М. Каромов. – Ташкент: Фан, 1972. – 184 с.
4. Matyoqubov, O. Maqomot / O. Matyoqubov. – Toshkent: Musiq, 2004. – 320 b.
5. Холопова, В.Н. Музыка как вид искусства: учебное пособие / В.Н. Холопова. – СПб.: Лань, 2014. – 320 с.
6. Абдуллин, Э.Б. Теория музыкального образования: учебник / Э.Б. Абдуллин, Е.В. Николаева. – М.: Академия, 2013. – 432 с.
7. Nettl, B. The Study of Ethnomusicology: Thirty-Three Discussions / B. Nettl. – Urbana: University of Illinois Press, 2015. – 520 p.
8. Campbell, P.S. Teaching Music Globally: Experiencing Music, Expressing Culture / P.S. Campbell. – New York: Oxford University Press, 2004. – 288 p.
9. Green, L. How Popular Musicians Learn: A Way Ahead for Music Education / L. Green. – London: Ashgate, 2002. – 238 p.
10. Карамов, Ф.М. Узбекская традиционная музыка и современность / Ф.М. Карамов // Музыкальная академия. – 1995. – № 3. – С. 45–52.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.